O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarini o`rganish bo`yicha maxsus kursning ma’ruza matnlari to`plami

Tayyorladi: t.f.d., prof. Q.Usmonov

Toshkent – 2009 y.

1-MAVZU.
MA’NAVIYAT- INSONNING ULG’AYIShI VA KUCh-QUDRAT MANBAIDIR

Reja:

1. Kirish.
2. Ma’naviyatni anglash.
3. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.

Tayanch tushunchalar: *mustaqillik, xalq ma’naviyati, ma’naviy tarbiya, tarixiy xotira, o’zlikni anglash, milliy o’zlikni anglash, mehr-oqibat, mentalitet, milliy mentalitet, g’arbona individualizt, sharqona jamoaviylik, ma’naviy tahdidi, mafkuraviy xuruj, milliy g’urur, milliy ruh, milliy meros, madaniy boyliklar, ilm, axloq, badiiy va diniy qadriyatlar, “Avesto”, xalq og’zaki ijodi, milliy bayramlar, islom dini, ilmiy- ijodiy kashfiyot, jadidchilik, ilmiy meros, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya*.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat” 2008, 3-64-betlar.
2. Islom Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik. Asarlar T.: “O’zbekiston ” 1996, Tom 2. 294-295-betlar.
3. Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo’q” Asarlar. Tom 5. –T.: “O’zbekiston”, 1997, 179-180- betlar.
4. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat-jamiyat taraqqiyotining asosi. Tom 7. – T.:“O’zbekiston”, 1999, 223,-235-betlar.
5. Ma’naviy yuksalish yo’lida (mualliflar jamoasi). –T.: “Ma’naviyat”, 2008, yil.

KIRISh

Hammamizga ma’lumki, yaqinda O’zbekiston Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch” nomi kitobi “Ma’naviyat” nashriyotida nashr etildi. Keng jamoatchilik ishtirokida mazkur kitobning taqdimoti bo’lib o’tdi.

Ushbu kitobda odamzod uchun hamma zamonlarda ham bebaho boylik bo’lib kelgan ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyati tahlil etiladi. Kitobda murakkab va serqirra tushuncha hisoblanuvchi ma’naviyat tushunchasining nazariy va amaliy tomonlari keng qamrovchi fikr va xulosalar orqali tahlil etilgan.

Asarning istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma’naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash bo’yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar, islohotlarning ma’naviy mezonlari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Darhaqiqat, **Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-usib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishga bog’liqdir.** Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi va ertangi hayotimiz **farzandlarimizning ma’naviy olamiga bog’liq** ekanligi hammamizga ravshandir.

Shu boisdan ham Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq “Biz yurtimizda hech kimdan kam bo’lmaydigan” erkin demokratik jamiyat qurish uchun keng ko’lamli vazifalarni hal etishga qodir bo’lgan, **ham insoniy, ham ma’naviy etuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya** topgan avlodni voyaga etkazishni o’z **oldimizga yuksak maqsad qilib qo’yganmiz.**

Aynan shunday olijanob niyatlar sababli xalqimizning boy ma’naviy merosini, Vatanimiz tarixini tiklash, xolisona, ilmiy asosida yoritish va yoshlarimizga o’rgatish, qalbiga singdirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Islom Karimovning mazkur asari “Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo’lishlari shart” degan ezgu maqsadimizni ro’yobga chiqarishga ko’maklashadi, albatta.

Prezidentimiz ta’kidlagandek, bugun biz –xalqimiz o’z oldiga ezgu va ulug’ maqsadlar qo’yib, tinch - osoyishta hayot kechirayotgan, o’z imkoniyatlarimizga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyat qurish yo’liga ulkan natijalarni qo’lga kiritayotgan **tarixiy bir davrda yashamoqdamiz.**

Bugungi kunda biz o’z taqdirimizni o’z qo’limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda **xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etmoqdamiz**. Bu yo’lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olmoqda. Bunday imkoniyatlarni aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Tanlangan taraqqiyot yo’limizni xalqimiz to’g’ri tushunib, ongli ravishda qabul qilgani qo’llab-quvvatlayotgani maqsadlarimizga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o’zi tasdiqlamoqda.

Mamlakatimizda xalqimizning, **yoshlarimizning dunyoda hech kimdan kam** bo’lmasligi uchun **bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbor etayotgan ekanmiz,** bu borada **ma’naviy tarbiya masalasi beqiyos ahamiyat kasb etadi.**

Ma’naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va **mas’uliyatimizni yo’qotsak**, bu o’ta muhim ishni o’z holiga, o’zibo’larmonlikka **tashlab qo’yadigan bo’lsak**, muqaddas qadriyatlarimizga yo’g’rilgan va ulardan oziqlanadigan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan **ayrilib, oxir-oqibatda o’zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo’lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.** Ko’p asrlik tariximiz guvohlik beradiki, xalqimiz bunday xatolarni necha **bor ko’rgan, ularning jabrini totgan**. Xalqimiz, tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz xavf ostida qolgan davrni yaxshi biladi, eslaydi. **“Ana shu fojeali o’tmish,** bosib o’tgan mashaqqatli yo’limiz barchamizga saboq bo’lishi, bugungi voqealikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo’lib yashashga da’vat etishi lozim. **O’z tarixini bilmagan, kechagi kunni unutgan**

millatni kelajagi yo'q." I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", 4 – bet.

Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov 1994 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining (Parlamentining) XII sessiyasida so'zlagan nutqida yaqin tariximizda, mustamlakachilik davrida boshimizdan kechirgan voqealar haqida quyidagi dardli – istirobli va tabiiy savollarni o'rtaga tashlagan edi:

- O'ylab ko'ringlar, aziz do'stlar, o'shanda kim edik?
- Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo'lida edi?
- Ka'ba deb qaerga sig'inar edik? Har tong "Assalom" degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg'onar edik?
- Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi?
- Milliy g'ururimiz, insonlik sha'nimiz, urf–odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?
- Xo'sh, o'zimizchi? O'zimiz o'zligimizni bilarmidik?
- Aytinglarchi, o'sha kezlari O'zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan hisoblasharmidi?
- Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasi ekanidan qay birimiz xabardor edik?
- Go'yo milliy iftixor bo'lmish paxta, haqiqatda milliy g'urur o'rniga bo'yinturuq bo'lib xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob – uqubat, ta'na-malomatdan boshqa nima keltirardi?

I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", 5 – 6 betlar. Asarlar, Tom-2, 294 – 295 betlar.

Ana shunday illatlarga, kamsitish va mensinmaslikka barham berish, hayotimizda **tarixiy adolatni qaror toptirish yo'lida hal qiluvchi mezon-xalqimizni ma'naviy yuksaltirishdir, e'tiborimiz markazida turgan ustuvor vazifadir.**

Bizga ravshanki, yuksak ma'naviyat, ezgu fazilat va intilishlar asrlar davomida xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Xalqimizning

tabiatiga xos yuksak ma’naviyat bizni ne-ne balo-qazolardan, to’fon va bo’ronlardan sog’-omon asrab kelmoqda. Ota-bobolarimizning ma’naviy hayot mezonlari, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo’lib, kuch-quvvat bag’ishlab kelmoqda.

G’arb olamida odamlarning hayot tarzida individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilib kelganligini kuzatish mumkin. Bu holit muayyan, ob’ektiv ishtimoiy- tarixiy omillar tufayli shakllangan bo’lib, uni inkor etib bo’lmaydi.

Sharqda, o’zimizning O’rta Osiyo sharoitida esa odamlarning tarqoq bo’lib yashashga imkoni bo’lmagan, **odamlarning jamoa bo’lib yashash tarzi shakllangan**. Tarixiy muhit, atrofi cho’l va sahrolar bilan o’ralgan, tabiati va iqlimi murakkab bo’lgan O’rta Osiyoda aholi katta suv manbalari atrofidagi vodiylarda gavjum, **bir-biriga elkadosh bo’lib, bir-birining og’irini engil qilib, qo’llab - quvvatlab yashash tarzi shakllangan.** Ana shunday tarixiy, tabiy va ijtimoiy omillar asosida xalqimizning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari shakllanib, komillik sari intilib yashab kelmoqda. Hayotning o’zi aholini shu ruhda tarbiyalagan. Bugun ham hayot O’rta Osiyo xalqlarini do’stlik va hamkorlik ruhida yashashga da’vat etmoqda.

Asrlar davomida xalqimizning boshqalarga o’xshamaydigan bir qator o’ziga xos xususiyatlari shakllangan:

- **Mehr –oqibat;**
- **Mehr –muhabbat**
- **Mehr – shafqat;**
- **Qadr – qimmat;**
- **Do’st – birodar bo’lib yashash.**

Bu tushunchalarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o’zi mumkin. Bu tushunchalar buyuk qadriyatimizning amaliy ifodasidir.

Tarixiy voqelikka mani shunday qarash, jamuljam bo’lib yashash tuyg’usi biz uchun **hayot falsafasiga, hayot qoidasiga aylanib kelgan**. Bu **milliy mentaletimizning asosini tashkil etadigan,** boshqalardan ajratib turadigan xususiyatdir. Buni anglash zarur.

Bunday haqiqatni anglay olmaydigan chet eldagi ba’zi siyosatchilar siyosatda, iqtisodiyotda, ma’naviyatda bizga aql o’rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo’lgan qadamlarni majburan joriy etishga urinmoqda. Bu holat bizni tashvishlantirmasdan qolmaydi.

Dunyodagi zo’rovon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o’ziga tobe qilib, bo’ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo’lsa, avvalambor, uni qurolsizlashtirishga, ya’ni **eng buyuk boyligi bo’lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi.**

Ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid jamiyatini inqirozga olib boradi. **Jamiyatda bo’shliq paydo bo’lsa,** uni kimdir to’ldirishga harakat qiladi, shaxsni o’zi tug’ilib o’sgan yurti va xalqidan tonishga, loqayd shaxsga aylantiradi.

Ma’naviyatimizni anglash uchun nima qilish lozim? Har qaysi inson o’zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug’ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o’zlashtirishi, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o’zgarishlarga daxldorlik tuyg’usi bilan yashashi zarur. Ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, **yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo’lmaydi**, o’zining ezgu maqsadlariga albatta etadi.

2. Ma’naviyatni anglash

Ma’naviyat o’zi nima? Bu savolga, ko’p hollarda, har xil, bir-biriga qarama – qarshi, noaniq, sayoz javoblarni ham eshitamiz.

Ma’naviyat so’ziga har qaysi ma’rifatli **inson o’zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsiflar berishi tabiiy**. Bunga taajjublanmasdan, ularni javob beruvchining o’ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilishi o’rinlidir.

“Ma’naviyat” tushunchasining mazmuni faqat **“ma’ni”, “ma’no” degan so’zlar doirasida chegaralanib qolmaydi.**

Ma’naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan , odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch. Insonning barcha qarashlarining mezonidir.

Demak, “Ma’naviyat” tushunchasi jamiyat hayotidagi g’oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o’zida to’la mujassam etadi.

Insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg’ayishi ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydi. Halol va pok yashashni o’zi uchun hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb biladigan insonlar ko’pchilikni tashkil etadi, ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug’ olamda ma’naviyat hamisha barqaror bo’ladi.Lekin, olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo’lib yashaydigan shaxslar ham oz emas. Ular o’zini dunyoning haqiqiy egasidek, bekamu ko’st,boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo’ngandek his qilishga urinadi. Bu holatni boshqalar ko’rmaydimi?

Tabiyki, bu holatlarni ko’rib-kuzatib, o’zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib qo’ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo’lshi mumkin**. Odamlarni o’ylantirib qo’yadigan bunday holatlar hayotda ko’p uchraydi.**

Ibratli hikmatlar bilan birga “Yo’lini topibdimi qandini ursin”,

“Uzumini eng-u, bog’ini surishtirmang” degan maqollar ham borligi bizga ma’lum. Hayotning ma’no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham bor. **Savol tug’iladi, inson o’z boyligini peshona teri to’kib, Olloh bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing’ir-qiyshiq , harom-xarish yo’llar bilan orttiryaptimi? Bu savolga ikki xil hayotiy qarash, javob mavjud.**

DUNYoQARASh

O’z nonini halol mehnat qilib topadigan, bugungi hayoti va oxiratini o’ylab yashaydigan, insonlarga xos hayotiy qarashdir.

Hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o’zini qiynamasdan, faqat nafs qayg’usi va o’tkinchi hayo yu xavasga, huzr-halovatga berilib, o’zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga befarq bo’lib yashaydigan odamlarning fikr qarashlaridir.

Bu og’ir savol odamzod ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o’ylantirib, qiynab keladi. Buyuk mutafakkirlar asrlar davomida bunday murakkab muammolarga javob topish uchun izlangan, bu mavzuda qancha-qancha asarlar yozgan. Bu savol bugungi kunda ham o’tkir va-dolzarb bo’lib qolmoqda.

Ta’brir joiz bo’lsa, **kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir Shayton izmida yuradi.** Bulardan **har kim o’ziga tegishli xulosa chiqarib olish zarur. Xulosa shuki,** bu dunyoda engil-elpi, har xil nopok yo’llarga, berilib, insoniy burchini unitib, mol-dunyoga intilib yashagan odam hayotining so’ngida mol-dunyosi uni saqlab qolmayotganligidan achinib, armon va nadomatlarga botib o’z umrini tugatadi.

Yana bir xulosa shuki, Ollohning o’zi bizga buyurgan komil inson bo’lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi fazilatlarni chuqur anglash, shunday xususiyatlarga ega bo’lish, ularga amal qilib yashash – odamzodning ma’naviy boyligini belgilab beradigan **asosiy mezondir.**

Ma’naviyatning yana bir muhim xususiyati shundaki, ma’naviyat **odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e’tiqrdini butun qilishda yorqin namoyon bo’ladi.** Buning yorqin misoli, yaqin o’tmishimizdir. Qariyb 150 yil davom etgan mustamlakachilik, dahshatli qora kunlar davrida ham xalqimiz

orasidan haqiqiy vatanparvar insonlar etishib chiqqanligi, xalqimiz o'zini, o'zligini yo'qotmagani fikrimizning dalilidir.

Buni Yaponiya yoki Janubiy Kareya misolida ham ko'rish mumkin.

Agar odamzod bu dunyoda ruhan pok bo'lib, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg'oq bo'lib yashamas ekan, inson hayotining qanday ma'nosi qoladi? Bu hammamizni o'ylantiradi, sergaklikka chorlaydi.

Bunday ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishimiz mumkin.

Tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning ne'mat va go'zalliklardan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-asoyishta hayot kechirish, o'z ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha erda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi. Dunyoda har bir insonning o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunishi, anglash uchun avvalo insonni tushunishi, anglash kerak. O'zligini , insoniy qadr-qimmatini anglash etgan harqanday odam bu haqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin.

3. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar

Milliy **ma'naviyatimizni yuksaltirish asosiy vazifamiz** ekan **ma'naviyatimizni shakllantiradigan** va unga ta'sir etadigan barcha **omil va mezonlarni tahlil qilib,** ularning ma'naviyatimizni yuksaltirishdagi o'rnini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat.

1.**Ma'naviy meros,** madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhum omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.



Vatanimizning ming yillar davomida qurilgan suv inshootlari, asori atiqalar, dehqonchilik va shaharsozlik san’ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo’lgan 4000 dan ziyod moddiy-ma’naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifitida YuNESKO ro’yxatiga kiritilgan. Kutubxonalarda saqlanayotgan ming-minglab bitiklar, qo’lyozmalar, qimmatbaho asarlar bizning ma’naviy boyligimizdir. Bular ma’naviyatimizni shakllantiradigan omillardir.

Masalan, **“Avesto”** deb nom olgan bebaho boyligimiz ma’naviy yuksalishda katta o’rin tutadi. Undagi “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal” degan tamoyil hozirgi zamonda biz uchun ibratlidir.



Xalq og’zaki ijodi, jumladan **“Alpomish”** dostoni milliy davlatchiligimizning badiy ifodasi, azamat o’g’lonlarimizni ma’naviy jihatdan kuchli etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. “ Alpomish” eposini kuylab, uni qalbiga, shu urniga joy qilgan millatni esa hech qanday kuch enga olmaydi.

2.Milliy ma’naviyatimizni shakllanishida, bugungi kunda yanada yuksalishida milliy bayramimiz –**Navro’z ayyomi** muhim omil hisoblanadi. Navro’z falsafa xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanadi. Navro’z bayrimi yoshlarimizni ma’naviy kamol topishida muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

3. Ma’naviyatning yuksalish bilan bog’liq bo’lgan yana bir omil, mezon-muqaddas **dinimizdir.** Haqiqat, insof va adolatni qaror toptirshda, milliy madaniyatimiz, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, poklik, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlash, insonlarni olijanob ruhida tarbiyalashda Islom dini muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan Islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g’arazli xuruj va hamlalardan himoya qilish, uning asl-mohiyatini unib-o’sib kelayotgan yosh avlodlarimizga tug’ri tushuntirish dolzarb vazifamizdir.

Ma’naviyatni yuksaltirishda quyidagi tadbirlar muhim ahamiyatli bo’ldi.

Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti sifatida nishonlanishi.

Imom Buxoriy bobomiz nomining hurmat izzat bilan o’z o’rniga qo’yilishi.,,

Al-Jome' as-sahih" kitobining to'liq nashr etilishi. Bu kitob o'n ikki asrdirki, insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib kelmoqda.

Abu Iso Muhammad Ibn Iso Termiziy ("Sunani Termiziy" asari), Imom Moturidiy ("Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafga sazavor bo'lgan), Burhoniddin Marg'inoniy ("Din va millatning hujjati degan yuqsak unvonga sazovor bo'lgan") ("Hidoya-"to'g'ri yo'l"asari), Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband merosi Xalqimiz va dunyo ahlini yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ham o'rni katta.

4. Buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning bemisol ilmiy-ijodiy kashfiyotlari, ilmiy faoliyati bugun ham jahon ahlini hayratga solmoqda, insonlarni ma'naviy yuksaltirmoqda.

- Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy faoliyati hammamizga ma'naviy yuksalish omilidir.

- Sohibqiron Amir Temur ("Temur tuzuklari") ilmiy fan, madaniyat, din va madaniyat rivojiga keng yo'l ochdi.

"Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi Mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir" degan so'zlari bugungi kunda ham ma'naviy jixatdan naqadar dolzarbdir. "Bilagi zo'r birni yqitar, bilimi zo'r mingni yiqitar" degan maqol aql-idrok, yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etadi.

-Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy hayoti, ijodiy faoliyati biz uchun qudratli ma'rifiy quroldir. Yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamagan, to'xtamaydi.

-Jadid bobolarimizning faoliyati, yurtimizni taraqqiy toptirishidagi ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi.

-Diyorimizda etishib chiqqan Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev, Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov Sobir Yunusov, Yahyo G'ulomov, Bo'riboy Ahmedov, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya,Sana Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim, Sarimsoqova, Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroev VA boshqa KO'PLAB dunyoga

mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblari faoliyati ma’naviy yuksalish omilidir.

Biroq o’tmishiga, ajdodlar jerosiga mahliyo bo’lib yurshining o’zi bilan uzoqqa borib bo’lmaydi. Yuksalishga intilishimiz zarur.

5. Har qaysi millatning o’ziga xos madaniyatini shakllantirishi va yuksaltirishda **oilaning o’rni** va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning, bolaning sof va pokiza tuyg’ulari, ilk hayoti tushunchalari, tasavvurlari birinchi galda oila bag’rida shakllanadi. Inson o’z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo’lgan davrda olar ekan

“Qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan maqolada kupguna ma’no-mazmun bor. Bola oilada yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag’ritosh bo’lib etishi mumkin. Buni tushunish qiyin emas..... (Sizlab gapirish haqida)

“Bu yorug’ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi”(Asar, 56-bet).

Ma’lumki, yurtimizda har qaysi yilga aniq nom berilmoqda. Dastlab, 1998 yilni mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilinishida ham olam-olam ma’no bor.

Oilaga cheksiz hurmat-ehtirom bildirib, **Qarshi shahrida 2005 yilda “El-yurt tayanchi” nomli muazzam yodgorlik barpo** etildi.

Bu yodgorlik xalqimizning tayanchi bo’lgan oilaga cheksiz hurmat-ehtirom tuyg’usidir**.“Oila sog’lom ekan-jamiyat mustahkam**, jamiyat mustahqam ekan-**mamlakat barqarordir”**(Asar, 58-bet).

6. Ma’naviyat hayotimizni yuksaltirish borasida **mahallaning roli** va ta’siri muhim omildir.

Mahalla-ham ota, ham ona degan hikmatli naql ham hayotiy haqiqatdir. Mahalla ma’naviy yuksalish yo’lida ta’sirchan ijtimoiy fuqorolik idorasidir.

7. Ma’naviyatimizni shakllantirishimizga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy olim-bu **ta’lim-tarbiya tizimi bilan** chanbarchas bog’liqdir. Ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosida ongni o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni

rivojlantirib bo’lmaydi. Bu soha davlat, jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo’llab-quvvatlashini talab qiladigan umumiy masaladir.

Ta’lim tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo haloqat, yo saodat-yo falokat masalasidir”degan chuqur ma’noli so’zlarini unutmaslik kerak.

Asarlarda sifat o’rniga son ketidan quvish ustunlik qilishni, amalda diplomli bo’lib olish ilinjida institutga kirish hollari tanqid ostiga olinadi

Asarda ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlar, natijalar haqida so’z boradi. “Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko’lami va mohiyatiga ko’ra ulkan ishlarimiz biz ko’zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo’lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, bugun xalqimizning ma’naviy yuksalish yo’lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo’lmaydi” (Asarlar, 64-bet).



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. **Milliy o’zlikni anglash ma’naviyatni qay darajada belgilaydi?**

2. G’arbona individualizm va sharqona jamoaviylik o’rtasidagi tafovut nimalarda aks etadi?

3. Ma’naviy tahdid deganda nimani tushunasiz?

4. Millat taraqqiyotida milliy ruh, milliy g’urur, milliy mentalitetning ta’siri nimalardan iborat?

5. Vijdon uyg’oqligi va inson ma’naviyati o’rtasidagi bog’liqlikni izohlab bering

6. Milliy meros taraqqiyotimizda qanday o’rin tutadi?

7. Madaniy boyliklar deganda nimalarni tushunasiz?

8. Din ma’naviyatning tarkibiy qismi ekanligini asoslab bering.

9. Buyuk allomalarimiz ilmiy merosining ma’naviy yuksalishdagi o’rni nimalardan iborat?

10. Sizning hayotingizda oilangizning o’rni haqida so’zlab bering.

11. Yoshlar hayotida mahalla, ta’lim muassasalarining o’rni, ahamiyati nimalardan iborat.

2-MA’RUZA.

MA’NAVIY VA MODDIY HAYoT UYG’UNLIGI. MILLIY G’OYa VA MA’NAVIY HAYoT.

Reja

1. Ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi
2. Milliy g’oya va ma’naviy hayot

Tayanch tushunchalar: ma’naviy olam, moddiy hayot, inson omili, davlat va jamiyat, ma’naviy imkoniyatlar, moddiy ne’matlar, ma’naviy muvozanat, G’arb va Sharq aqidaparastligi. Islom ma’naviyati. Yurt tinchligi. Vatan ravnaqi. Xalq farovonligi. Komil inson. Ijtimoiy hamkorlik. Millatlararo totuvlik. Dinlararo bag’rikenglik.

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat –engilmas kuch. - T .: “Ma’naviyat”, 2008, 65-76-betlar.
2. Karimov I.A.Elni Vatan manfati birlashtiridi. Asarlar Tom 1. – T.: “O’zbekiston”, 1966, 187-199-betlar.
3. Karimov I.A.Buyuk maqsad yo’lidan og’ishmaylik. Asarlar, Tom 1. –T .: “O’zbekiston” 1966, 200-218-betlar.
4. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo’q, Asaralar. Tom 5. –T.; “O’zbekiston”, 1997, 145-150-betlar.
5. Karimov I.A. Iqtisodiyot va ma’naviyat ajralmasdir. Asarlar. Tom 6. – T.: “O’zbekiston”, 1998, 314-317-betlar.

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –jamiyat taraqqiyotining asosi. Asarlar.Tom 7. –T.: “O’zbekiston”, 1999, 223-235-betlar.

1. Ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi

Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida ma’naviyatning inson va jamiyat hayotidagi mohiyati va ahamiyati masalalari tahlil qilinadi va bu borada asrlar davomida qizg’in bahs-munozaralar bo’lib kelayotganligi-qayd etiladi. Muallif mazkur masalaga to’xtab, o’z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Asarda **odamning kundalik hayoti** va faoliyatida **moddiy va ma’naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o’rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi** haqida turli-tuman, ba’an esa ziddiyatli qarashlar mavjud bo’lgani, bunday tushunchalar hozirgacha davom etayotgani qayd etiladi. Ne-ne buyuk allomalar bu masala bo’yicha ko’plab asarlar yaratib qoldirgani ham hammamizga ma’lum.

“Misol uchun , – deb yoziladi mazkur asarda, – qadimiy hind, hitoy yoki yunon foylasuflarini olasizmi, o’rta asrlardagi Sharq va G’arb Uyg’onish davri nomoyandalarini olasizmi, islom olamda nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi – ularning ilmiy merosida **moddiy va ma’naviy olam o’rtasidagi munosabatlarga keng o’rin berilganini ko’rish mumkin**” (O’rganilayotgan asar 65-bet).

Antik davr foylasuflari bo’lmiy Sakrat va Platon, Epikur va Demokrat, Xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqalarning bu boradagi qarashlari fan tarixidan yaxshi ma’lum. Ularning ayrimlari **ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba’zilari esa moddiy olamni asosiy o’ringa qo’yadi.** “Ancha shunday tushuncha va tasavvurlar asosida **keyinchaoik materializm va idealizm kabi ta’limotlar maydonga chiqdi”** (O’rganilayotgan asar, 66-bet)

Bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o’z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy-madaniy saviyasi, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qildi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday **bahslar sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma’lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham oladi.** Masalan, sovet davrida materialistik qarash ustun qo’yildi.

Natijada **materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi,** degan tamoiyl hukmron dunyoqarash darajasiga ko'tarildi. Oqibatda insonning ma'naviy qadriyatlari, milliy va diniy tuyg'unlariga bepisand qaraldi, toptaldi.

Ushbu masalaga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, bu ko'hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona va yaxlit bir voqelikdir.

Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo'yish, birini ustun qo'yish bir yoqlama qarash ifodasidir.

Odamning ruhiy dunyosini ikkilamchi o'ringa qo'yish, mensimaslik oxir-oqibatda **jamiyatni inqirozga olib boradi. Buni** tarix ko'p bor isbotlagan.

Haqiqatda esa **"inson** o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan **noyob xilqat,** "Yaratganning buyuk va sirli mo''jizasidir", (O'rganilayotgan asar 67-bet). Insonning ichki dunyosini, unga ato etilgan fazilatlarni anglash, tushunish o'ta murakkab masala.

Insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanoatiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi".

Qachonki agar shu **ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qush qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sishi, o'zgarish, yuklashi jarayonlari sodir bo'ladi.**

I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", 67-bet.

Inson uchun moddiy va ma'naviy olam ikki qanotdir. Kush ikki qanoti yordamida uchganidek inson ham moddiy va ma'naviy vositalar orqali kamolga etadi.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq yurtimizda, jamiyatimiz hayotida ana shu ikki omilning uyg'un tarzda rivojlanishiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Mustaqillik biz uchun ham iqtisodiy, ham ma'naviy imkoniyatlar manbai ekanini anglab, hayotimizni shu asasda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berib kelinmoqda.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davrida jamiyat a'zolarining o'z salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlar yaratib beriladi.

"Oddiy qilib aytganda, kuch - g'ayrat bilan birga bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi etarli bo'lgan, qonunlarni, o'z haq-huquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan odamgina tadbirkorlik yoki fermerlik bilan shug'ullanishi, o'z xususiy ishini oqilona va samarali tashkil etishi mumkin" (O'rganilayotgan asar 68-bet).

Demak, **moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir birini inkor etmaydi, aksincha bir birini to'ldiradi.** Asarda ta'kidlanganidek "Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi" (O'rganilayotgan asar 69 bet).

Shu boisdan bizning davlatimiz **iqtisodiy tiklanishi va rivojlanish jarayonlarini ma'naviy poklanish va yuksalish xarakatlari bilan uyg'un ravishda rivojlanib borishini e'tibor markaziga qo'yib kelmoqda.**

Ma'lumki, o'tgan asr 90 - yillarida aksariyat odamlar bizda ham kimningdir xususiy zavodi yoki fermasi, do'koni bo'lishi mumkinligini tasavvur etolmasdi. Chunki xamma narsa davlat mulki bo'lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo'lish tushunchasi begona edi, bu qoralanar edi. **Bugungi kunda esa odamlar xam o'zgardi, mulkka munosabat xam o'zgardi. Mulkdorlar tabaqasi vujudga keldi.**

Tarixdan ma'lumki "o'zining xususiy mulkiga ega bo'lgan shaxs, toifa o'zini va oilasini boqishga, orttirgan daromadi hisobidan o'z yaqinlari va muhtoj insonlarga beg'araz yordam ko'rsatish, el - yurt uchun xizmat qiladigan maktab, kasalxona, madaniyat va sport maskanlari barpo etish, bir so'z bilan aytganda,

davlat va jamiyat zimmasidagi ko’pgina vazifalarni amalga oshirishga o’z xissasini qo’shadi” (O’rganilayotgan asar 70 bet).

Bunday insonlar yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni saqlash, yorug’ kelajagimizni qurish yo’lida mehnat qiladi. Bu holat jamiyatimiz taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

“Eng muhim, - deyiladi Prezident asarida, - yurtimizda moddiy va ma’naviy jarayonlarning o’zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustaxkam garovi bo’lib xizmat qilmoqda” (O’rganilayotgan asar 70-bet).

2. Milliy g’oya va ma’naviy hayot.

Ko’p asrlik tarix guvoxlik beradiki, o’zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq, eski ijtimoiy tuzumdan yangi tuzumga o’tishda o’zining milliy g’oyasiga ega bo’lgan, uni tayanch va suyanch deb bilgan.

Milliy g’oya xalqning yuksak maqsadlarini o’zida ifoda etadi, shu yo’lda odamlarni birlashtiradi, safarbar etadi. Milliy g’oya odamlar qalbida ishonch uyg’otadi, yangi tuzumga o’tishda qo’shimcha kuch-quvvat va madad bag’ishlaydi.

Milliy g’oya degan tushunchaning mazmun mohiyati nimalardan iborat?

Milliy g’oya deganda ajdodlardan avlodlarga o’tib, e’zozlanib kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan xar bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy extiyoji va xayot talabiga aylanib ketgan tushuncha va tamoyillarni tushunamiz. Demak milliy g’oya xar qaysi millatning eng ezgu orzu – intilish va umid – maqsadlarini o’zida mujassam etadigan tushunchadir.

Prezident Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy istiqlol g’oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir, deb ta’kidlagan edi. 1993 yil 23 aprelda Prezidenti Islom Karimov bir **guruh adiblar** bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g’oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993 yil 7 may kuni nutq so’zlab, Prezident Islom Karimov milliy istiqlol g’oyasining maqsadlari haqida quyidagilarni ta’kidlagan edi:

- Miilliy istiqlol g’oyasi xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma’rifat tuyg’ularini ongimizga singdirishi lozim
- Milliy istiqlol g’oyasi xalqimizda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli asosda munosabib o’rin egallashga doimiy intilish hissini tarbiyalamog’i kerak.

“Tafakkur**”** jurnalining 19989 2-sonida jurnal bosh muharrining savollariga Prezident Islom Karimovning javoblari e’lon qilinadi. Mazkur javoblarda milliy g’oyamizning nazariy va amaliy jihatlari chuqurroq yoritib berilgan. Bugungi kunda, deb ta’kidlagan edi Prezident Islom Karimov, sobiq ittirofoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni mutelik holatiga solgan **kommunistik mafkurani tanqid qilish, ma’muriy choralar ko’rish yo’li bilvan engib bo’lmaydi. Unga qarshi o’z maqsadimizni o’zida ifoda etadigan milliy g’oyamiz bilan kurashimiz kerak,** deb ta’kidlanadi.

Demak, Prezident Islom Karimov boshchiligida, Istiqlolimizni qo’lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy g’oyamizning asosiy tushunchasi va tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilindi. Shu maqsadda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi etakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilikning e’tibori ana shu muhim masalaga qaratildi. **Avvalambor mustaqillikni asrab avaylash, uni yanada mustahkamlash maqsadi milliy istiqlol g’oyamizga asos qilib olindi.** Islom Karimov milliy istiqlol g’oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo’ldi.

Biz o’rganiyotgan Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat –engilmas kuch” nomli asarida **milliy istiqlol g’oyamizning mazmun mohiyati yanada boyitilgan.** Hozirgi murakkab va tahlikali zamon talablari, jamiyatimizni yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bilan bog’liq maqsadlarimizga hamohang ravishda oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo’ymoqda. Asarda ana shu

yangi vaziyat va vazifalarni inobatga olgan holda yangi qarash va fikr-mulohazalar bildirilgan. Asarda milliy istiqlol g'oyamizga xos tamoyillar yangi mazmun bilan boyitilgan.

Xo'sh milliy istiqlol g'oyamizning mazmun-mohiyati, tamoyillari qanday tushunchalarni qamrab oladi?

Bular quyidagilardan iborat:

- **Yurt tinchligi.** O'z oldimizga qo'yilgan orzu-intilishlarimizni amalga oshirishning yagona sharti va garovi **– bu tinchlik va osyishtalikdir.**

Bu tushuncha hayotiimzga chuqur kirib keldi . Bugungi kunda yurtimizda qaysi xonodonga kirmang, qanday yig'in yoki maraka bo'lmasin, fotihaga qo'l ochilganda, yoshu qari, erkagu ayol – barchamiz Yaratgandan tinchlik va osoyishtalikni so'rab duo qilinishiga hammamiz guvohmiz.

Tinch yashash insonning muqaddas huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni qonuniy vositalar bilan kafolatlashdan iborat. Bu huquqni amalga oshirish –davlat va jamiyatni demokratlashtirishning muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi ham shu mezon bilan o'lchanadi.

- **Vatan ravnaqi** va taraqqiyotini ta'minlash milliy istiqlol g'oyamizning muhim mezonidir. Vatan ravnaqi har bir insonning yuksak fuqarolik mas'uliyatidir. Har bir fuqarolik mas'uliyatidir. Har bir fuqaro o'z mamlakatining badavlat davlatlar qatoriga ko'tarilishidan manfaatdordir

- **Xalq farovonligi** milliy istiqlol g'oyamizning negizini tashkil etadigan mezon, tomoyildir. Har bir odam to'q va badavlat hayot kechirish, el-yurtga munosib farzand tarbiyalash, ularga bilim berish, uy-joyli qilish, ularning baxtu kamolini ko'rish orzusi bilan yashaydi. Odamlarning ana shunday orzu – umidlarini ro'yobga chiqarish mazkur tamoyilning bosh maqsadidir. Buning uchun barcha asoslar – tabiy boyliklar, unumdor er, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. O'z kuchi, o'z aql-zakovati bilan farovonlikni barpo etishga qodir mehnatsevar va iste'dodli xalqimiz bor. Amalga oshirilayotgan islohotlar shu maqsadga yo'naltirilgan.

- **Komil inson tamoyili.** Yosh avlodni vatanparvar, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilish mazkur tamoyilning bosh maqsadidir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bunga xizmat qilmoqda.
- **Ijtimoiy hamkorlik tamoyili.** Jamiyatimizda mavjud bo’lgan barcha toifa, tabaqalarning, turli partiyalar va siyosiy kuchlarning intilishlari va umidlari, erkin qarashlari, e’tiqodi va duyoqarashidan qat’iy nazar, ularnng barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, hamkorligini uyushtiradigan buyuk maqsadlar sari chorlaydigan mezon – bu ijtimoiy hamkorlik tamoyilidir.
- **Millatlararo totuvlik tamoyili**. Dunyoda Monoetnik, va polietnik davlatlar bor. O’zbekiston polietnik (ko’p millatli) davlat. Shu boisdan Mazkur tamoyil harqanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarni mensinmaslikdan xoli bo’lishga undaydi. Bu tamoyil qo’shni davlat va xalqlar, umuman xalqaro maydonda munosib hurmat va izzat qozonish yo’lida rahnoma bo’lib xizmat qiladi.
- **Dinlararo bag’rikenglik tamoyili.** O’zbekiston fuqarolari orasida turli dinlarga e’tiqod qiluvchilar bor. Ularning diniy e’tiqodlarini hurmat qilish, dinlararo bag’rikenglik, diniy e’tiqod erkinligini ta’minlash mazkur tamoyilning maqsadidir.

O’zbekistonda olib borilayotgan ma’naviy ishlar fuqarolarning duyoqarashini boshqarishga qaratilgan**.** Aksincha, odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma’no va mazmun bilan to’ldirishga qaratilgan. Shuni anglab olish zarurki, Milliy g’oya degan so’z faqat bir millatga – o’zbeklarga mansub bo’lib qolmasdan, O’zbekistonda yashayotgan, uni o’z ona Vatani deb biladigan barcha millat va elatlarga birdek daxldordir.

Asarda urg’u berib aytilgan fikr shundan iboratki, bizning eng ulug’ maqsadimiz, eng ulug’ g’oyamiz shuki, **O’zbekistonning bitta yo’li bor: mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug’ va erkin hayot sari olg’a yurish. G’oyamiz, makuramiz, kuch–g’ayratimiz ana shu ulug’vor niyatni amalga oshirishga yo’naltirilgan.**

Milliy g’oyamiz aslida xalqimizni, yurtimizdagi barcha siyosiy kuchlarni, nodavlat tashkilotlarini yagona umumiy maqsad atrofida birlashtirishga, bir tanu bir jon qilishga qaratilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Materialistik qarashlar nima?
2. Idealistik ta’limot nima?
3. Ma’naviy va moddiy olam o’rtasidagi uyg’unlikni qanday tushunasiz?
4. Moddiy va ma’naviy munosabatlar uyg’unligini ta’minlashning ahamiyati nimalarda namoyon bo’ladi?
5. Ma’naviy muvozanatning buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
6. Milliy g’oyaning zarurligini asoslab bering?
7. O’zbekiston milliy istiqlol g’oyasi qanday tamoyillarni qamrab oladi?
8. Mamlakatda tinchlik, taraqqiyot va farovonlikni ta’minlashda milliy g’oyaning ahamiyati nimalardan iborat?
9. Yoshlarni tarbiyalashda komil inson, ijtimoiy hamkorlik, dinlararo bag’rikenglik tamoyillarining o’rni va ahamiyati nimalarda namoyon bo’ladi?

3 – MAVZU.

MUSTAQILLIK – MA’NAVIY TIKLANISh VA YuKSALISh

Reja:

1. **Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi**
2. **Islohatlar va ularning ma’naviy mezoni**

Tayanch tushunchalar: Axloqiy tarbiya, milliy qadriyat, ma’naviy tarbiya, ona tili, dunyoviy davlat, diniy konfessiya, milliy urf-odatlar, tarixiy xotira, bozor iqtisodiyoti, xususiylashtirish, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy munosabatlar.

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T .: “Ma’naviyat”, 2008, 76-109-betlar.

1. Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi nimalarga bog’liq? Bu avvalo:

- **xalq ma’naviyatining tiklanishiga bog’liq;**
- **an’ana va urf-odatlarimizning saqlanishiga bog’liq:**
- **madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivojiga bog’liq;**
- **jamiyat tafakkurining o’zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog’liqdir.**

Shu boisdan mustaqillik yillarida o’z haq-huquqini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, shaxsiy manfaatlarini xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan, har jihatdan **barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi hal qiluvchi masalaga aylanadi.**

Bu jarayon mustabid soved tuzumi barbod bo’lgan, yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan **murakkab vaziyatda yuz berdi.**

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni asrab qolish, Markaziy bosimidan xalqimizni himoya qilish, o’z mustaqil siyosatimizni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida SSSR hududidagi respublikalar orasida birinchi bo’lib Mamlakatimizda 1990 yil 24 martda **Prezidentlik boshqaruvi joriy jtildi.**

O’zbekiston Oliy Kengashning o’sha kung sessiyada Islom Karimov nutq so’zlab quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Oldimizda turgan dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda eski tuzum davrida milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga zarar keltirishini unutmaslik kerak”. Bu borada asosiy ishlarimiz nimalardan iborat?

1. Milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazinani ko’z qorachig’imizdek **asrashimiz va boyitishimiz kerak.**

2. So’zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e’tiqod erkinligini ta’minlashimiz darkor.

3. Ma’rifat va madaniyatning moddiy-texnik bizasini mustahkamlash. Maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o’choqlarini ko’paytirishi, sharoitini yaxshilash. Bu soha ancha orqada qolib kelgan edi. Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma’rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim.

4. O’qituvchilar, shifokorlar, madaniyat xodimlari, ijodkorlar, olimlarga e’tiborni kuchaytirish.

5. O’sib kelayotgan avlodga, uning tarbiyasiga javobgarlik hissi bilan yondashish. Yoshlarni chet ellarda ta’lim olishlarini rag’batlantirish.

6. Insoniylik va axloqiy aqidalarni paymol qiladigan urinishlarga qat’iy ravishda qarshi turish.”

Istiqlolimizning 1 yili 4 oy oldin aytilgan bu fikrlarni anglash bugun hqyotga kirib kelayotgan yoshlarimiz uchun ko’p narsa ayon bo’ladi.

Yurtimizda millliy tiklanish o’tgan 1,5 asr davomidagi qaramlikdan keyin mustaqillikning dastlabki yillaridayoq o’zigaxos “**Inkorni-inkor**” **qonuniyati** asosida kechdi. Bu jarayonga hushyorlik bilan yondashildi, **siyosiy va madaniy ekstremizm xavfining oldi olindi.** Shuningdek, **urf-odat va an’analarga betartib qaytish,** jamiyatni yangilash **zaruratini inkor etish kabi** nomaqbul holatga yo’l qo’yilmoqda.

Ba’zi odamlar, biz mustaqillikka erishdik, endi ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatlar asosida yashashimiz kerak, degan asossiz qarashlarni ham bildirgan edi.

Bunday fikrlar noto’g’ri ekanligi, unga qo’shilib **bo’lmasligi haqida tushuntirish ishlari olib borildi.**

Milliy qadriyat nima? Tarix sinovlaridan o’tgan, milliy manfaatlarimizga, taraqqiyot talablariga javob beradigan, qadri ortib boradigan **g’oya va tushunchalar milliy qadriyat hisoblanadi.** Milliy qadriyatlarni bir yoqlama ulug’lash va ideallashtirishga urinish salbiy oqibatlarga olib keladi, hayotda bu isbotlangan. Bu holat ko’pmillatli O’zbekistonda millatlararo ziddiyat, diniy betoqatlik kabi noxushlikka olib kelishi mumkin.

Ma’lumki, o’zlikni anglash, milliy ong va tafakkurrning ifodasi, avlodlar o’rtasidagi bog’liqlik **til orqali** namoyon bo’ladi. Ona tili - bu millatning ruhidir.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy so’zi: “Har bir millatning dunyoda borlig’ini ko’rsatadigan ayinai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo’qotmoq millatning ruhini yo’qotmoqdir”.

Mustaqillik arofasida **o’zbek tiliga davlat tili** maqomini berish masalasidagi bahs, munozaralar. O’sha kezlarda uchqundan alanga chiqib ketishi hech gap emasdi.

To’g’ri o’lni topdik. Oliy Kengash qoshida maxsus komissiya tashkil etildi. O’zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi. Boshqa tilli aholi uchun ularning tillarini davlat yo’li bilan himoya qilish, har bir fuqaroning o’z ona tilida ta’lim, axborot, ma’lumot olishi huquqlari kafolatlandi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq mustahkamlab qo’yildi.

O’zbek tilining o’rni va ahamiyatiga bag’ishlangan kitoblar, lug’atlar, darsliklar, o’quv qo’llanmalari kashf etildi. **Ish yuritish ona tilimizda amalga oshirilmoqda.** Yozuv haqida: arab yozuvi, lotin yozuvi, kiril yozuvi. Lotin yozuviga o’tish masalalari 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini joriy etish to’g’risida”gi qonun haqida. Til madaniyatini oshirish haqida: adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, ayrim hududlarda ishlatiladigan shevalarni qo’shib ishlatish holatlari uchramoqda

Bobomiz Alisher Navoiyning “Tilga e’tiborsiz - elga e’tiborsiz” degan so’zlardagi hayotiy haqiqatni anglab olish zarur.

Insonda **Vatanga muhabbat to’yg’u** o’z nasl-nasabini chuqurroq bilish, o’zligini anglash orqali shakllanadi, ildiz otib boradi. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson O’zbekiston fuqarosi. Jahon-keng, dunyoda mamlakatlar ko’p. Biz uchun O’zbekiston Yakkayu Yagona, undan faxrlanishimiz kerak. Avvalo O’zbekiston fuqarosi, undan keyin Xorazmlik, Samarqandlik, Farg’onalik h.k. Yagona o’zbek millati bor. Xorazmlik, Farg’onalik... hech qanday farq yo’q.

Sovet davrida ko’chalar O’zbekiston aloqasi bo’lmaganlar nomlariga qzyilgan edi. Bular odamlarni tarixiy xotira, Vatan tuyg’usidan judo qilish uchun qilingan edi.

Mustaqillik yillarida qadimiy nomlar tiklanadi. Prezidentimiz asarida **dunyoviylik va dahriylik, diniy e’tiqod haqida** qimmatli fikrlar bildiriladi.

Sovet davrida diniy e’tiqodning paymol etilishi, uning oqibatlarini anglab etishimiz zarur?. O’sha alg’ov-dalg’ov davrida ham Xalqimiz o’z muqaddas diniga sodiq qoldi. Dinni xalq hayotidan o’chirib bo’lmaydi Mustaqillik sharofati bilan dinimiz, diniy e’tiqodimizning tiklandi. **Biz umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini puxta egallashimiz kerak.** Bobolarimiz **Mahmudho’ja Behbudiy yozadi:**

“Dunyoda turmoq uchun **dunyoviy fan va** ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan **babahra millat boshqalarga paymol bo’lur**”. Bu fikrning to’g’riligini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni isbotlamoqda.

Olis ajdodlarimiz kashfiyotlari bilan **maqtanish kifoya qilmaydi, zamon bilan hamqadam bo’lib yurishimiz kerak.**

Hadisi sharifda aytilganidek *“***Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unitmang***”*

“Bizning Ma’naviy hayotimiz ana shu ikki asos, ikki tayanch nuqtaning ustida mustaxkam turishi lozim” deb yozadi Islom Karimov o’z asarida.

Ularning **birortasi bo’shashgudek bo’lsa, yana o’zgalarga qaram bo’lishimiz hech gap emas.** Dunyoviy va diniy qadriyatlar bir birini to’ldiradi.

Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishida millif urf-odatlarimiz, mehr-oqibat, insonni ulug’lash, tinchlik, totuvlik kabi qadriyatlarimiz muhim ahamiyatga ega. Umumxalq hasharlarning ahamiyati. Tarixiy xotira masalasi “**Tarixiy xotira tuyg’usi to’laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o’tgan yo’l o’zining** barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo’qotish va qurbonlari, quvonch va istiroblari bilan xolis va haqqoniy o’rganilgan taqdirdagina **chinakam tarix bo’ladi**” (O’rganilgan asar 97-bet).

Mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag’onlik qurbonlari hurmati va xotirasi o’z o’rniga qo’yilgan. 1937-1953 yillarda O’zbekiston bo’yicha qariyb 100 ming kishi qatag’onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlangan.

2000 yili Yunusobod tumani Bo’zsuv kanali sohilidagi Alvasti ko’prik deb nom olgan jarlik o’rnida Shahidlar xotirasi xiyoboni va keyinchalik Muzey va jamg’arma tashkil qilindi, qurbonlarni yod etish kuni sifatida nishonlanmoqda (31 avgust tongida).

9 may Xotirava qadrlash kuni sifatida nishonlanmoqda 35 tomlik xotira kitobi chop etildi.

Biz ma’naviy sohada ham tadrijiy evolyutsion islohotlar tarafdorimiz va bunga amal qilmoqdamiz.

“Har qaysi jamiyatning demokratik nuqtai nazardan **yangilinishi va yuksalishi** shu jamiyatning, shu davlatning **taraqqiyoti mahsuli ekanini hammamiz guqur anglab olishimiz zarur**”. Islom Karimovning o’rganilayotgan asari, 101-bet.

Mana shunday qonuniyatni inkor etish salbiy natijalarga olib kelishi muqarrardir. Bunga misol tarixda ko’p.



2. Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni

Jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, **o'z umrini yashab bo'lgan eski tuzum** qonun-qoidalarini yangicha asosda **o'zgartirish, isloh qilish** zaruriyati kun tartibiga chiqadi.

Biz mustaqillikni qo'lga kiritgach, sovet tuzumidan qolgan meros-ma'muriy-buyruqbozlik tizimini isloh qilib, erkin bozor munosabatlariga asoslangan **huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga qaror qildik. Shu yo'lda:**

- **ko'p maslahatlar qilindi;**
- **taraqiytopgan davlatlarda o'zini oqlagan tajribalar**
- **o'rganildi;**
- **Xalqimizning hayot tarzi, milliy an'ana va qadriyatlari, aholining ruhi va kayfiyati hisobga olindi;**
- **Odamlarga islohatlarning ma'no-mohiyati tushuntirildi;**
- **Jamiyat a'zolarida ishonch uyg'otildi;**
- **Odamlar bunyodkorlik sari safarbar etildi;**

Ana shunday izlanishlar natijasida Prezident Islom Karimov yo'lboshchiligida bugungi kunda butun dunyoda o'zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modeli ilab chiqildi. Bu modelning asosiy tamoyillari



.

Bu modelning negizida hayotga realistik qarash, pragmatik hayotga mos **yondashuv mujassam. O’zbekiston faqat o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanib ish yuritishga majbur edi.**

Sinov yillari. Oldimizda turgan savollar. Iqtisodiyot nochor edi. Qaysi davlatdan qancha va qanday shartlar bilan qarz olish lozim? Qarz olgan davlatning sirtmog’iga tushib qolmaymizmi? Qarzni to’lash muammosi? Xato qilmaymizmi? Farzandlarimiz kelajakda qoqilib qolmaydimi? Shu tufayli gunohga botmaymizmi? Va hakozo.

O’zbekistonda Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan, amalga bo’lgan **islohaolar siyosatimizda ma’naviy mezonlar doimo hal qiluvchi omil bo’lib kelmoqda.**

“Shok teropiyasi”, “demokratik orolcha” haqidagi usul va shov-shuvlar, kutilgan amaliy natijalar bermadi. Ularning tagi puch bo’lib chiqqanligi bugun hammaga ravshan.

O’zbekiston Prezidenti etakchiligida chetdan “maslahatchi” chaqirmay, ularning “dono kengashlari”siz, haqiqiy vaziyatda mos siyosat yuritildi. Biz aholining bir qismi **o’ta boyib,** aksariyati **o’ta**”qashshoqlashib **qolishiga yo’l qo’ymadik.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimizda, barcha **o’zgarish va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo’yildi.** “Islohot

uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak”degan maqsad bilan ilgarilab bordik. Odamlarning moddiy turmush sharoitini keskin yomonlashishiga, o’rnini yuz yillar davomida to’ldirib bo’lmaydigan og’ir yo’qotishlarga yo’l qo’yilmaydi. Bizning yo’limiz to’g’ri ekanligini mamlakatimizda ro’yobga chiqqan ko’p sohalardagi ijobiy natijalar misolida yoqqol ko’rishimiz mumkin. **Bizning o’z yo’limiz bor va bu yo’ldan xech qachon qaytmaymiz,** deb aytilgan so’zlarimiz bugun o’z hosilini bermoqda.

O’zbekistonda islohot jarayonida moddiy farovonlik va ma’naviy yuksalishga erishish mezoniga qat’iy amal qilindi. Biz ma’naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksincha bir – birini quvvatlab, o’zaro ta’sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o’zimizga avval boshdanoq dasturi amal sifatida belgilab oldik.

Davlat bosh islohotchi degan tamoyilimiz iqtisodiyotning unversal talablarini milliy ma’naviyatimiz xususiyatlari bilan uyg’unlashtirishda g’oyat **muhim ahamiyat kasb etdi.**

O’zbekistonda eski tuzumdan qolgan nochor va xasta iqtisodiyot o’z – o’zidan erkin bozor iqtisodiyotiga aylanadi, eski sovetcha jamiyat esa demokratik jamiyatga aylanadi, degan xayolparastlikka berilmadi.

Demokratiya degani ma’naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demoqdir. Shu boisdan, mamlakatimizda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” kontseptsiyasi ishlab chiqildi va unga amal qilindi.

ISLOHOTLAR VA ULARNI AMALGAM OSHIRISH



Islohotlarimizning barcha bosqichlarida xalqimizning ma'naviy hayoti bilan bog'liq masalalar ustuvor yo'nalish sifatida kun tartibiga qo'yib borilmoqda. Islohotlar jarayonida ma'naviy – axloqiy qadryatlarning qimmati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanib qoladi, degan xavotirlar ham bo'lgan edi. Biroq bu xavotirlar o'rinsiz ekanligi O'zbekistondagi bugungi o'zgarishlar misolida yoqqol namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda Davlatimiz byudjetining 50 foizdan ziyodi ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgani ham buni tasdiqlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. **Axloqiy madaniyat nima?**
2. **Milliy qadriyatlar deganda nimalarni tushunasiz?**
3. **O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi haqida nimalarni bilasiz?**
4. **Milliy urf –odatlarimiz haqida nimalarni bilasiz?**
5. **Taraqqiyotning o'z modelini tushuntirib bering?**
6. **O'tish davrida ijtimoiy adolat tamoyilining ahamiyati nimada?**
7. **Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun degan iboraning mazmun –mohiyatini tushuntirib bering.**

4-MA’RUZA.

MA’NAVIYaTGA TAHDID-O’ZLIGIMIZ VA KELAJAGIMIZGA TAHDID.

Reja:

1. Globallashuv jarayoni va ma’naviy tahdidlar.
2. Fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya.

Tayanch tushunchalar: Globallashuv davri. Globallashuv tushunchasi fenomeni. Ijtimoiy tomonlari. Salbiy tomonlari. Ma’naviy tahdid. Terrorizm. Ekstremizm. Missionerlik. Axborot vositalari. Ma’naviy bo’shliq. “Ommaviy madaniyat”. Sharqona axloq kodeksi. Mafkuraviy immunitet. Hasad. Sotqinchilik. Befarqlik. Loqaydlik

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008, 110-127-betlar.

1. Globallashuv jarayoni va ma’naviy tahdidlar

Biz bugungi kunda tez sur’atlar bilan o’zgarib borayotgan, o’ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, olimlar, jurnalistlar biz yashayotgan zamonni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqdalar. Kimdir uni yuksak **texnologiyalar** zamoni desa, kimdir **tafakkur asri**, kimdir **axborotlashuv** davri sifatida izohlamoqda. Bunday fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’no va ratsional mag’iz bor. Ammo ko’pchilik biz yashayotgan zamonni globallashuv davri, deb atashmoqda.

GLOBALLASHUV – *bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.*

Globallashuv fenomeni - bu siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy **hayot sur’atlarining beqiyos** darajada tezlashuvi, milliy va mintaqaviy muammolarining jahon miqyosidagi, butun er sharini qamrab oluvchi muammolarga aylanib borishi demakdir. Shu boisdan globallashuv tushunchasi ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noda ishlatilmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi paytda er yuzining **qaysi chekkasida qanday bir ijobiy, yoki salbiy voqea sodir bo’lsa, bu haqda dunyoning boshqa chekkasida yashovchi odamlar zudlik bilan xabar topmoqda, o’z maqsadi yo’lida foydalanmoqda.**

Globallashuv jarayonining bizning mamlakatimiz, hayotimizga kirib kelayotganining asosiy sababi shundaki, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jahon miqyosidagi boshqa mintaqa mamlakatlari bilan ham chambarchas bog’lanib bormoqda. Biron mamlakatning, jumladan O’zbekistonning bu jarayondan chetda turli ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish qiyin emas.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tamoni bo’lgani singari, **globallashuv** jarayonining ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjudki, ularni sezgirlik bilan anglashimiz lozim.

Ijobiy tomonlari:

- davlatlar va xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining ko’chayishi;

- xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklarning vujudga kelishi, ko’plab yangi ish o’rinlarining yaratilishi;

- Zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi;

- Turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg’unlashuvi;

- Tsivilizatsiyalararo muloqatning yangicha sifat kasb etishi;

- Ekologik ofatlar paytida o’zaro yordam ko’rsatish imkoniyatlarining ortishi.

Bularga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Globallashuv jarayonida insoniyat uchun salbiy, tashvishga soluvchi holatlar ham yoqqol namoyon bo'lmoqda.

Dunyoda turli xil kuchlar mavjudki, ular har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – egulik yoki yovuzlik yo'lida foydalanayotgani ham ayni haqiqatdir.

Bashariyat tarixi guvohlik beradiki, hayotda insonnni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan **ezgu g'oya va maqsadlar bor hamda yovuz va zararli g'oyalar bor.** Ular o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelgan, bunday kurash bugungi kunda ham davom etmoqda, yanada keskin tus olmoqda.

Globallashuv jarayonining **o'ziga xos xususiyati** shundaki, bugungi kundagi zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tezkorki, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, **uning bizga aloqasi yo'q,** deb beparvo qarab bo'lmaydi.

Globallashuv jarayonining **yana bir xususiyati** shundan iboratki, u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, **"Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega".** Ogoh bo'lish zarurki, harbiy, siyosiy, iqtisodiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, oldini olish mumkin, mafkuraviy tazyiqni uning ta'siri va oqibatlarini esa tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sog'lom dunyoqarashga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidga, pinhona ta'siriga bardosh berolmaydi.

Ma'naviy tahdid nima?

Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkint inson bo'lib yashashga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy, informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim.

I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", 14 – bet.

Ma’naviy tahdid ozod va obod farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarga zarba beradigan mudxish xavf-xatarlar majmuasidir. Ma’naviy tahdid ayniqsa yoshlarimizning qalbi va ongiga mutlaqo begona, buzg’unchi dunyoqarashni singdirishga qaratilgani bilan xatarlidir. (O’zini mutloq haqiqatning, yagona ifodachisi deb hisoblaydigan kimsalar mavjud.) Ular haqiqat va xolislikdan yiroq, g’arazli siyosiy manfaatlarni ko’zlaydigan kimsalardir. Ularga qarshi izchillik bilan kurash olib bormasak, yoshlarimizni o’z girdobiga tortishi, ota-ona, el-yurti oldidagi burchi va ma’suliyatini o’ylamaydigan kimsaga aylanib qolishi mumkin. Hushyor bo’lish lozim.



Ma’naviy tahdidni o’zimizning Vatanimizda uchrab turadigan terroristik ekstrimistik, missonerlik harakatida ham ko’rish mumkin. **Boshimizdan kechirdik...**

Terrorizm nima? Terrorizm siyosiy raqiblarni, muxoliflarni qo’rqitish, yo’qotish, aholi o’rtasida vahima va tartibsizlik keltirib chiqarish maqsadidagi zo’rovonlik harakatidir (ta’qib qilish, buzish, garovga olish, portlatish, qotillik va hakozo). Yakka tartibdagi yoki guruhli terrorizm.

Ko’p hollarda terrorizm ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog’lanib ketgan holda namoyon bo’lmoqda.

Ektremizm nima? Ekstremizm deganda siyosatda, mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritishi tushuniladi. **Ekstremizm siyosiy ko’rinishda yoki diniy ko’rinishda namoyon bo’lmoqda**.

1. Siyosiy ekstrimizm mavjud siyosiy tuzumni, davlatni ichdan buzish yoki ag’darish maqsadida harakat qiladi. Ular “demokratiya” niqobi ostida harakat qiladi, balandparvoz shioralar bilan, tartibsizliklar keltirib chiqaradi, odamlarni g’ij-g’ijlaydi, terror usulidan foydalanadi, har qanday murosa va kelishuvlarni rad etadi.

2. Millatchi ekstremistlar faoliyati separatizm bilan bog’liq bo’lib, millatlar o’rtasida mojarolar keltirib chiqaradi, tub millat hukumronligini o’rnatishga da’vat qiladi, urinadi.

3. Diniy ekstrimizm esa, birinchidan; bironta diniy aqidalar niqobi ostida boshqa dinga, konfessiyalarga, ularning vakillariga toqatsiz murosasiz bo’ladi. Ikkinchidan, diniy ektstremizm diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadilar. (pul beradi va hokoza).

Masalan “Hizbut-tahrir”, “Tavba” nomli diniy ekstrimistik tashkilotlar yangidan mustaqillikni qo’lga kiritgan dunyoviy davlatlarga tahdid qilmoqda (O’zbekiston-akromiylar-2005yil may Andijon). Ularning foydalanadigan qurol vaqtinchalik qiyinchiliklardan foydalanishga urinish, yoshlar ongini aqidaparastlik g’oyalar bilan zaharlash.

Diniy ekstremistlar yoshlarni yo’ldan urishga, o’z ota-anasiga, o’zi tug’ilib o’sgan yurtiga, davlatiga qarshi qo’yishga harakat qiladi va harakat qilmoqda. Shu boisdan bugungi kunda ekstremizmga qarshi kurash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda bizning mamlakatimizda missionerlik harakati ham namoyon bo’lmoqda.

Missionerlik nima? Biror dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar, xususan yoshlar orasida boshqa bir dinni targ’ib qilish harakati missionerlik deyiladi.

Missionerlik harakati o’rta asrlardayoq boshlangan. Missionerlar har xil yo’l bilan, pul evaziga yoshlarni o’z ta’siriga olishga urinadilar. Missionerlarning maqsadi biron mamlakatni o’z mamlakati ta’siri ostiga olish, biron bir mamlakatda o’z mamlakatining siyosatini o’tkazishiga yordam berishdir.O’zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonuni 5- moddasiga ko’ra, O’zbekistonda har qanday missionerlik faoliyati man etilgan.

Bugungi kunda **talabalarimiz** nafaqat Oliy o’quv yurtida, balki turli radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham **axborotlar olmoqdalar. Biz pedagoglar talablarga uni o’qima, buni ko’rma, deb ularning ongini, atrofini temir devor bilan o’rab-chirmab olmoqchi emasmiz.**

Biz erkin deokratik jamiyat qurish vazifasini o’z oldimizga maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, yoshlarga maslahatimiz shundan iboratki, jahon axborot maydonidan umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o’zlashtirgan holda **taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan o’z maqsadimiz yo’lida foydalanishga** da’vat etishdir.

Yoshlarimizning **ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasin, deymiz. Inson ma’naviyatga qarshi yo’naltirilgan kichik bir axborot ham ulkan ziyon etkazishi mumkinligini doimo yodda tutish lozim.**

“Biz davlatimiz kelajagini umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o’zlashtirgan holda tasavvur etamiz... Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovan hayot kechirish, o’zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz Biz uchun shunday yo’l ma’qul, uning maqobili yo’q, deb ta’kidlanadi Islom Karimovning biz o’rganayotgan “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch ” nomli asarida (O’rganilayotgan asar 114-115 betlar).

Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasligi uchun nima qilishimiz kerak? Ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim? **Ma’naviyatimizga tahdid soladigan hurujlarga nimani qarshi qo’yish kerak?**

Javobi shunday:

- Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib ish olib borishimiz kerak?

Javoblari shunday:

– tabora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid, xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va xushyor bo'lib yashashimi

– har qaysi inson o'zligini anglashi;

– qadimiy tariximiz va boy ma'daniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi;

– bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarashi;

– mustaqil fikirlashi;

– mamlakatimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi lozim.

Bir chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiyaga tayanishimiz lozim.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi" (O'rganilayotgan asar, 116-bet).

Bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar, qudratli davlatlar tomonidan "Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida muayyan mamlakatlarga nisbatan, xususan er osti, er usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan g'arazli siyosat yuritayotganligini o'z vaqtida anglash zarur. Ayrim mintaqalarda tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga o'sha davlatning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi kabi misollar oz emas. Bunday holatlar haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Bizning mamlakatimizga ham chetdan halqimizga mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan **"ommaviy madaniyat" yopirilib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.** Bunday kuchlar "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, invidualizm g'oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirishga urinadilar. Ularning xalqimizning necha ming yillik ma'naviy qadriyatlariga bepisandlik, buzishga qaratilgan tahdidlari odamni tashvishlantirmoqda. Axloqsizlikni madaniyat, ma'naviy qadriyatlarimizni eskilik sarqiti deyuvchilar **oila muqaddasligiga, yoshlar tarbiyasiga xavf solmoqda.** Bunday xurujga qarshi kurashmoq kerak.

Sharqona axloq kodeksi –or-nomus, uyat va andishi, sharmu hayo, ibo va iffatni saqlash zarur. Ey yoshlar: hayot murakkab va tahlikali, uning shafqatsiz o'yinlari bor, ular haqida biryoqlama va soxta tasavvurga ega bo'lmanglar.

2. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya

Hozirgi vaqtda dunyoning geopolitik, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda, turli mafkuralar **tortushuvi keskin tus olmoqda**. Bunday vaziyatda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixiy qonuniyat: bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish davrida ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy sohalar bilan birga g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal etish, taraqqiyotning bu boradagi tamoyillarini amalga oshirish zarurati yuzaga keladi.

Ijtimoiy ong va tafakkurning o'zgarishi, yangicha dunyoqarashning shakllanishi uchun o'tish davri zarur bo'ladi

Umrini o'tab bo'lgan jamiyatning g'oyasi, aqida yoki mafkurasi o'tmishga aylanadi

Ayni shu sharoitda xalq va davlatning ezgu maqsadlariga yot va zararli bo'lgan, jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladigan begona g'oyalardan himoyalanish

Yangi g'oya va mafkura jamiyat taraqqiyotining zaruriy sharti, ijtimoiy jarayonning hosilasi sifatida vujudga keladi

MAMALAKAT taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar

Bunday sharoitda mafkuraviy bo'shliqni jamiyat va xalqni pirovard maqsadlariga mos bunyodkor g'oya va mafkura bilan to'ldirish zaruratga aylanadi



«Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega»
Islom Karimov

Har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo kishi organizmida kasallikka qarshi immunitet hosil qilinishi bizga ma'lum. "Biz ham, - deb yozadi Islom Karimov, - farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur" (O'rganilayotgan asar, 119-bet).

Yoshlarimiz milliy o'zligini, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib etishishi zarur. Ana shunda yoshlarimizga johil aqidaparastlarning **"da'vati" va axloq-odob tushunchalari ham, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.**

Asarda hayotimizda hali beri uchrab turadigan **salbiy holatlar-eski zamonlardan qolib kelayotgan nomaqul odatlar, xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparastlik,**

boshqalarni mensimaslik haqida ham ochiq so'z boradi. Bu kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xolos etish haqida o'ylashimiz zarur, deb ta'kidlanadi biz o'rganayotgan asarda. Bu o'ta muhim vazifa jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarning diqqat markazida bo'lishi zarurligiga alohida urg'u beriladi.

Hayotimizda, odamlarda og'ir asorat qoldiradigan salbiy holatlardan eng xunugi **hasad tuyg'usidir. Xasad boshqalarni ko'rolmaslik, yutug'idan kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi.** Hasad jirkanch odat. Muborak hadislarda "Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov o'tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi", deb aytilgani bejiz emas.

Unutmaslik zarurki, ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli azob-uqibatlarni boshidan kechirgan, sog'ligi, hatto hayotidan judo bo'lgan. Bunga tarixda misollar ko'p.

Ilm-fan, ma'daniyatimizni rivojlantirgan va dunyoga namoyish kilgan yuzlab ulug' zotlar xalqimiz orasidan etishib chiqqan, bugungi kunda ham bunday zotlar ko'plab topiladi. Hamma gap bunday insonlarga xayrixoxlik bilan munosabatta bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlashda, deb ta'kidlanadi mazkur asarda. Shahardami, qishloqdami yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz, unga yo'l ochib berishimiz kerak. Hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Shunda yuksak marralarga erishamiz.

Asarda yana bir illat-**sotqinlik haqida gap boradi. Sotqindan har qanday yovuzlik chiqadi.** Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir.



Sotqin odam rahbarlik kursiga o'tirib qolsa, u erda osoyishtalik yo'qoladi. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Sotqindan ogoh bo'ling, yonimizdan o'rin bermang. Atrofimizdagi birorta kishida shunday alomatlar sezilsa, uni darhol tarbiyamizga olib, to'g'ri yo'lga boshlashimiz lozim, deb ta'kidlanadi asarda.

"Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon enga olmaydi" (O'rganilayotgan asar, 112-bet).

Qanday inson o'z hayotida keskin vaziyatga, murakkab muammolarga duch kelganda, undan yorug' yuz bilan chiqa oladi? Javob-o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan, irodasi kuchli inson. Yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Boshingizga biror - bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa irodali inson hech ikkilanmasdan, yoningizda turadi, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda engishga harakat qiladi.

Hayotda birovning hayotiga, voqea-hodisalarga beparvo qarovchi, kuzatuvchi odamlar ham bor. **Bunday odamdan hech qachon yaxshilik chiqmaydi.** Ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular xatto o'z Vatani taqdiriga begona odamdek qaraydi.

Beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Negaki, dushmanning kimligi sizga oldindan ma’lum bo’ladi. Beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo’lmaydi, u ichingizda yurib dushmaningizga imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflar fikri: “Dinshunoslardan qo’rqma - nari borsa, ular seni o’ldirishi mumkin. Do’stlardan qo’rqma – nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq, odamlardan qo’rq – ular seni o’ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo’laveradi.” (O’rganilayotgan asar, 124-bet)

Bu fikrlarni **Siz talabalar** ongingizga singdirish biz ustozlarning muqaddas burchimizdir. Sizlar **bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlari bo’linglar.**

Prezident asarida ijtimoiy fanlar sohasida ijobiy ishlar bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar, xususan o’quv adabiyotlari saviyasining pastligi tanqid etiladi, bu boradigi vazifalar haqida gap boradi, Ijtimoiy-gumanitar fan mutaxassisliklari, olimlaridan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tavsiyalar berish taklif qilinadi.

Zararli g’oyalarni oldini olish yo’llari

- **Oilada sog’lom tarbiya berish**
- **Mafkuraviy immunitetni kuchaytirish**
- **Fuqarolarning siyosiy, huquqiy madaniyati va tafakkurini mustahkamlash**
- **Milliy g’urur va iftihor tuyg’usi, o’zlikni anglash hissiyotini kuchaytirish**
- **Mardlik va vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalash**
- **Milliy g’oya asosida budyonkorlik fazilatlarini kamol toptirish, vayronkorlik faoliyatini fosh etish**

Acarda yoshlarni o’z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo’lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishishi vazifasi ilgari suriladi.

MA’NAVIY SOHADAGI VAZIFALAR

Yurtdoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish

Barcha kuch va salohiyatni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik yo’lida safarbar qilish

Millati, tili, diniy va jitimoiy qarashlaridan qat’iy nazar, barcha yurtdoshlarimizni milliy g’oya atrofida birlashtirish va buyuk O’zbekiston kelajagini barpo etishga yo’naltirish

Bugungi globallashuv davrida turli ma’naviy tahdidlardan doimo ogoh bo’lib, ularga qarshi muntazam kurash olib borish

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Glaballashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Glabjllashuvning insoniyat hayotiga ijobiy ta’siri nimalarda namoyon bo’lmoqda?
3. Glabollashuvning salbiy ta’siri haqida nimalarni bilasiz?
4. Ma’naviy tahdid nima, u nimalarda namoyon bo’lmoqda?
5. Nimalardan ogoh bo’lishimiz kerak?
6. Ma’naviy bo’shliq nima?
7. Sharqona ahloq kodeksi talablarini bilasizmi?
8. Mafkuraviy immunitet nima?
9. Hayotimizda qanday salbiy illatlar uchrab turadi?
10. Iroda nima? Qanday inson kuchli irodali bo’ladi?
11. Beparvo odamdan nima uchun yaxshilik chiqmaydi?

5 – MAVZU.

VATANIMIZ TARAQQIYoTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Reja

1. **Inson qalbiga yo'l.**
2. **Eng buyuk jasorat.**

Tayanch tushunchalar: Inson qalbiga yo'l. Ta'lim-tarbiya. Maktab. Mahalla. Adabiyot. San'at. Televideniya. Radio. Ommaviy axborot vositalari. Teatr. Kino. Tasviriy san'at. Haykaltaroshlik. Eng buyuk jasorat. Ma'naviy jasorat. Hayotning ma'nosi. Haqiqiy qahramonlik. Milliy mustaqillik

Adabiyotlar

Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 128-173-betlar

I.Karimov Amir Temur – faxrimiz , g'ururimiz. Asarlar. Tom 5 T.: "O'zbekiston", 1997, 181-190-betlar

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotining asosi. Asarlar. Tom 7.T.: "O'zbekiston", 223-235-betlar.

Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: "Ma'naviyyat", 2008.

1. Inson qalbiga yo’l

Ma’naviyatni chindan ham qudratli kuchga aylantirish uchun qanday masalalarga birinchi galda e’tibor berish kerak, qanday ishlarni amalga oshirish zarur? Inson qalbiga yo’l topish uchun faoliyatimizni qanday tashkil etishimiz kerak?

Ma’naviy da’vat, nazariy fikrlarni jamiyat ongiga singdirish borasidagi **faoliyatimizni puxta o’ylangan tizilmi ravishda tashkil etmasak inson qalbiga yo’l topolmaymz.**

Inson qalbiga, tafakkuriga ta’sir etuvchi sohalar:

1. Inson qalbiga yo’l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Yoshlarning ma’naviy duyosini shakllantirishda va boyitilishda o’qituvchi va murabbiylarning naqadar beqiyos ekanligi hammaga ravshan. Prezidentimiz o’zining asarida azrifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib shunday deb yozadi.

“Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug’i maktab bo’lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o’qituvchilik va murabiylikdir” (131-bet)



“Maktab ko’rgan”, “maktab yaratgan” degan iboralarning mavjudligi ham o’qituvchi mehnatining davlat va jamiyat hayotida muhim o’rin tutishida dalolat beradi. Shu boisdan O’zbekistonda 1 oktyabr kuni o’qituvchilar va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanmoqda.

2. Mahallalarimizda o’zini-o’zi boshqarishi idoralariga katta hissa qo’shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, diniy ma’rifat va ma’naviy ahloqiy masalalar bo’yicha maslahatchilari odamlar ko’ngliga yo’l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo’lmoqda. Ularning xizmatlari tufayli oila va mahalla muhitida butun mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik, o’zaro mehr-oqibat tuyg’ulari kuchayib bormoqda. Ular yosh oilalarning jamiyatdan o’ziga munosib o’rin topishiga ko’maklashmoqda.

3. Jamiyatimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalashda **adabiyot, san’at, madaniyat, matbuot, ilmu-fan, ijod** ahlining o’rni va roli tobora ortib bormoqda. “Ommaviy madaniyat”ning zararli jihatlarini faqat tanqid va inkor etish, ta’qiqlash bilan natijaga erishib bo’lmaydi. Xalqimizni ezgu insoniy g’oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali ma’naviy, madaniy saviyasini yuksaltirmoq kerak. Biz jahondagi aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo’lishimiz shart.

4. Bugungi kunda elektron axborot vositalari, televidenie, radio bir vaqtning o’zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy munosabatlardir. Ular insonga madaniy, badiy-estetik oziq beradigan, hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda.

Shu boisdan televidenie va radio sohasini izchil taraqqiy ettirish doimo e’tibor markazida bo’lishi zarur. Ular jami muloqat vositasiga aylantirishi, dolzarb **muammolarni ko’proq aks ettirishga jamoatchilik fikrini shakllantirishga, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishi zarur.**

Matbuot ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirishi, matbuot va so’z erkinligi tamoyillarini amalda ta’minlashshga erishishimiz kerak. Matbuotda tanqid ruhini kuchaytirishimiz zarur.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, *internet* **imkoniyatlaridan, axborot media tarmoqlaridan keng foydalanish ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarur.**

5. Insonning ma'naviy alamini kashf etadigan **qudratli vosita so'z san'ati, badiy adabiyotidir. "**Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson rug'ining muhandislari, deb ta'riflashi bejiz emas" (O'rganilayotgan asar,136-bet).

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi haqiqat va adolat jarchisi bo'libkelgan, bugungi kunda ham shu jabhada xizmat qilishi zarur. Bugungi kunimiz, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlarni xalqimiz kutmoqda.

Bugungi kunda **xalqaro hamjamiyat** el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'analariga o'zbek xarekteri, o'zbek tabiatiga **qiziqishi va hurmati tobora ortib bormoqda.** Milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish imkoniyatlari kengaydi, bu ishlarin kuchaytirishimiz zarur. Bu sohada mutaxassislar tayyorlash imkoniyatimiz bor.

"Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tirixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi.... bo'lsak, avvalambor buyuk **yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak"** (O'rganilayotgan asar, 139-140-betlar) Adabiyot yashasa –millat yashaydi. Cho'lpon.



6. Insonning **ruhiy komolotiga san'atsiz** erishib bo'lmaydi. Samarqand viloyatidagi **Mo'minobod qishlog'ida** 3300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilgani shundan dalolat beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobida **Amir Temun davrida musiqa anjumanlari o'tkazilganligi** ta'kidlanadi. Mumtoz **musiqiy** merosimizni asrab-avaylash**,** o'rganish, **yoshlarga etkazish maqsadida** bugungi kunda ko'rik-tanlovlar, xalqaro musiqa anjumanlari o'tkazilmoqda. **Estrada san'atining** navqiron avlodimizni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashda ahamiyati beqiyos.

Biroq **"yulduzlik" kasaliga chalingan** ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarning "asarlari hech qanday talab va mezonlarga javob bermaydi, bizning axloq-odob qoidalarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, so'zlarni buzib talaffuz qiluvchi **yosh ijrochilar bor.** Ular orasida san'atni, uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaydiganlar, buni **buni yangicha uslub deyuvchilar** ham oz emas. San'atshunoslar bu haqda o'z fikrini ochiq bildirishi zarur. Shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz kerak. **Negaki bu yuqumli kasallik, o'ta**

xavfli holat ekanini anglashimiz zarur. Bunday holat natijasida odam “Shashmaqom”ni Motsort, Betxoven, Bax, Chaykovskiy kabi buyuk kompozitorlarning asoslarini ham **qabul qilishi qiyin bo’lib qoladi. San’atkorlar orasida sog’lom ijodiy muhit tashkil qilish lozim,** musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish zarur.

7. **Teatr san’ati** haqida so’z borar ekan, Mahmudxo’ja Behbudiyning **“Teatr – bu ibratxonadur”** degan fikrini unutmaslik kerak. Teatrlarimizda tomoshabinlarni o’ziga tortadigan **yuksak asarlar kam ekanini ton olishimiz lozim.** Bu boroda bozor iqtisodiyoti talabalarini ham inobatga olish mumkin, albatta.

8. Eng ommaviy san’at turi **kino sohasida ham yangi-yangi filmlar yaratildi. Lekin yoshlarning tarbiyasiga chuqur ta’sir ko’rsatadgan** zamonaviy qahramon obrozi kino ekranlarimizda yaratilganicha yo’q. Negaki, rejissyorlar, stsenaristlar, professional kino **mutaxassislari tayyorlaydigan milliy maktab honuzgacha shakllangani yo’q.**

9. Mustaqillik va Navro’z bayramlari, “Sharq taronalari” musiqa festivaliga bag’ishlangan tomosha va tantanalarni tayyorlash jarayonida taeatr va televidenie rejisyorlari, badiy-publitsistik stsenaristlik borasida ulkan **tajriba to’plandi.** Bunday tajriba asosida yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo’yicha zarur **nazariy va o’quv-uslubiy bazani shakllantirish, yosh mutaxassislar tayyorlash ishlarini yo’lga qo’yish kerak.**

10. Milliy ma’naviyatimiz rivojini tasviriy san’atsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Bu borada katta ishlar qilindi. (Amur-Temur partreti). Haykallar, portretlar. Mustaqillik maydoni, Xatira maydoni, shaharlarda bu borada qilingan ishlar. Milliy o’yinchoq, qo’g’irchoq, **haykaltaroshlik** rivojlanmoqda.

Bu borada ishlaydigan insonlar pedagog, psixolog, dizayner bo’lishi, tariximiz va madaniyatimizni chuqur bilishi kerak.

Har qaysi **ijodkor Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tomoyillari ruhida xizmat qilsa** adabiyot ham, madaniyat va san’at ham ma’naviy yuksalib boradi albatta.

2. Eng buyuk jasorat

O’zbekiston buyuk tsivilizatsiya va madaniyat beshigidir. Vatanimizdagi bebaho yodgorliklar xalqimiz dahosining yorqin namunasi, uning yuksak madaniyati va ma’naviyatiga qo’yilgan muazzam haykallardir.

Er yuzidagi barcha o'lmas obidalar, kashfiyotlar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari **odamlarning aql-tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati** mahsulidir. Bu yorug' olamda **eng buyuk jasorat nima** degan savolga, bu **ma'naviy jasorat beb javob bersak**, yanglishmagan bo'lamiz.

Qalbida, yuragida jasorat hissi kuchli bo'lgan insonlar adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay el-yurt uchun, Vatan uchun ibratli ishlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin. Ana shunday odamlarning ma'naviy fazilatlari tufayli ezgu his-tuyg'ular, muqaddas tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo'lib kelmoqda.

Yunon faylasufi Platon o'z ustozi Sokrot vafot etgach, yunon falsafasining taqdiri xavf ostida qolganda katta jasorat ko'rsatdi. Platon falsafa fanini yangi bosqichga ko'tardi. Qiyinchilik, sarson-sargardonlikka qaramay, o'z mol-mulkini sarflab, olimlarni to'pladi, bahs-munozara olib boradigan **akademiya** tashkil etdi. Bu chinakam ma'naviy jasorat namunasi edi. Bu akademiya Sharqu G'arb olami rivojiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Shu bois ham Platon Sharq ilm-fanida "ustozi avval" –birinchi muallif degan sharafli nom bilan shuhrat qozondi.

Bog'doddagi "**Baytul-hikma**" **va Xorazm Ma'mun akademiyasida** faoliyat yuritgan dunyoga mashhur allomalar o'z kashfiyotlari, ma'naviy jasorati bilan tarixda iz qoldirdi.

Xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasida mintaqamizda tug'ilib o'sgan allomalar yuksak ma'naviy jasorat ko'rsatdi.

Evropada ijod etgan **Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley** kabi allomalarning jasoratida ham haqiqatga sadoqat, e'tiqod uchun kurashning yorqin namunasi yorqiin namoyon bo'lgan.

Hindiston birligi, mustaqilligi uchun kurashgan **Mahatma Gandi hayoti va faoliyati yuksak ma'naviy jasorat namunasidir.**

Vatanimizda yuksak ma'naviy jasorat ko'rsatgan allomalar, davlat arboblari dunyoga mashhur. Ulardagi ma'naviy jasorat to'yg'usining milliy o'zligimizni

saqlab qolishda, mamlakatimiz, o'zbek davlatchiligining bugungi dorilomon zamoniga bezavol etib kelishida o'rni vahamiyati beqiyosdir.

O'zbek xalqi duyo maydonida kuni kecha **tasodifan paydo bo'lib qolgani yo'q. Biz-boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyat vorisalarimiz.** Najmiddin Qubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur faoliti yuksak jasorat namunasidir.

XX asr boshlarida **jadid bobolarimiz ko'rsatgan fidoiylik** ham ma'naviy jasorat namunasidir.

Hayotning ma'nosi nima? Hayotning ma'nosi tinimsiz kurash, qiyinchiliklarni engib o'tish, doimo jasorat, azmu shijoat bilan yashashdan iboratdir. Buni anglab etishimiz lozim. **Odamzod o'zining yon-atrofiga uyg'oq nigoh, qalb ko'zi bilan qarashi lozim.** Murakkab ob-havo kunlarida ham erdan rizq undirish maqsadida kunni kunga, tunni tunga ulab mehnat qiladigan **dehqonlarimiz hayoti tom ma'noda jasorat namunasidir.**

Vaziyat taqozo etganda otilib chiqadigan, qahramonlik ko'rsatish ham oson emas. Lekin "**har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'zini buyuk maqsad sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu**" **(**O'rganilga asar, 165-bet). Bu hammaning qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun insonga buyuk va metin iroda kerak. **Akademik Yahyo G'ulomov** o'zining mustaqil fikrini, yuqori lavozim egalariga yoqmaydigan to'g'ri gaplarni dadil ayta oladigan **ulkan olim edi.**

Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz **Zulfiyaxonim ham fidoyi insonlardan edi.** Zulfiyaxonim millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan **saboq bergan.**

Ma'naviy jasorat sohiblaridan yana biri atoqli olim va jamoat arbobi **Ozod Sharafiddinov edi.** "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri, o'nga yaqin salmoqli qitoblar muallifi, qirqdan ortiq yirik roman va qissalarning o'zbek tiliga tarjimoni edi. O.Sharafiddinov mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlash haqida

ko’plab chiqishlar qildi. Shu bois “**O’zbekiston qahramoni**” **unvoniga sazovor bo’ldi.**

“Muxtasar qilib aytganda, – deb ta’kidlanadi biz o’rganayotgan asarda,

– olis va yaqin tariximiz shuni ko’rsatadiki, **xalqimiz doimo ma’naviy jasorat hissi bilan yashagan va** bu ulug’ tuyg’u uning hayotida yillar, asrlar o’tgani sayin **tobora kuchayib, yuksalib bormoqda.** Chunki **xalq ma’naviyati shunday bir ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g’ayrat va ilhom olib, o’zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi”** (O’rganilayotgan asar, 170-bet)

Shu ma’noda, 1991 yil 31 avgustda qo’lga kiritilgan **milliy mustaqillik -** XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilan **buyuk ma’naviy jasoratdir.**

Xulosa qilib aytganda, hammamiz chuqur anglab alishimiz darkorki, **ma’naviy yuksalishga erishish – bu** bir yillik yoki besh-o’nlik **ish emas.** Xalq, millat o’z milliy ma’naviyatini yillar, **asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi.** Negaki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig’indisi emas, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayondir. Taraqqiyot jarayonida ma’naviy hayot oldiga qo’yiladigan talablar ham muttasil paydo bo’laveradi. Zamon sur’atlari tezlashib borar ekan, muammo va mashaqqatlar paydo bo’laveradi. **Ma’naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, harqanday tahdid va to’fonlardan bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo’lishi darkor, -**deyiladi Prezident asarida.

Biz kimmiz, degan savolga javob berolmasak, ma’naviy boylikni, ma’naviyatni yuksaltirishga doimiy intilmasdan turib, biz o’z oldimizga qo’ygan ezgu maqsadlarga erisha olmaymiz.

Xalq - bamisali ulug’ va sharafli yo’ldan ilgarilab borayotgan **ulkan karvon.** Yo’ldan chalg’itishga urinuvchilar hamisha bo’lgan, bundan keyin ham bo’lishi mumkin. Karvon bexatar bo’lmas, degan gap bejiz aytilmagan.

Ammo **xalq karvonni hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi.** Negaki deganda, **xalqning qalbida ne-ne ajdodlardan meros engilmas kuch –**

ma’naviyat bor. Xalqimiz, millatimiz qalbidagi ishonch bugungi kunda yanada mustaxkamlanib bormoqda.

Prezidentimiz o’z asarida, o’z kelajagiga katta umid bilan intilayotgan xalqimizning donishmandligi va matonati, uning iymon-e’tiqodi, mustahkam irodasi va yuksak **ma’naviy ruhi doimiy barqaror yashaydi,** deb ishonch bildiradi. Biz, barcha talabalar ana shu ishonchga sodiq bo’lib, puxta bilim egallab, Vatanimiz, ma’naviyatimiz ravnaqiga o’z hissammizni qo’shish hissi bilan intilmog’imiz zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ma’naviyatni qudratli kuchga aylantirish uchun qanday vositalarga e’tibor berish kerak?
2. Inson qalbiga qanday olimlar bilan yo’l topish mumkin?
3. Inson qalbiga yo’l topishda ta’lim –tarbiyaning ahamiyati nimalarda nimoyon bo’ladi?
4. Inson falbiga yo’l topishda mahallaning o’rni nimalarda namoyon bo’lmoqda?
5. Komil insonni tarbilishda adabiyot, san’at, matbuotning o’rni haqida nimalarni bilasiz?
6. Teatr, kino, tasviriy san’atning ma’naviyatni yuksaltirishdagi o’rinlari qanday tushunasiz?
7. Eng buyuk jasorat ntma?
8. Ma’naviy jasorat namoyondalari, ularning ijodi haqida nimalarni bilasiz?
9. Hayotning ma’nosi nima?
10. Haqiqiy qahramonlik nima?
11. Ma’naviy hayotimiz nima uchun va qanday sinovlarga, chag’ituvchilarga duch kelaveradi?
12. Nima uchun xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi?